



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI	158-170

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv'i" асари	
асосида)	205-214

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shukhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	330-339

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI	398-403

Tursunov Ravshan Normuratovich
O'zMU Tarix fakulteti dosenti, tarix fanlari doktori (DSc)
ravshan.tursunov.1980@mail.ru

XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida sodir bolgan zilzilalar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hamda ekologik va epidemiologik vaziyatga ta'siri manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zilzila, seysmik hodisa, shaharsozlik, me'moriy obidalar va inshootlar, talofat, mahalliy observatoriya, ekologik va epidemiologik muhit.

Tursunov Ravshan Normuratovich
Docent of the Faculty of History of UzMU, Doctor of History (DSc)

A LOOK AT THE HISTORY OF EARTHQUAKES THAT OCCURRED IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY - THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

Abstract. In the article, the earthquakes that occurred in Turkestan in the second half of the XIX century - the beginning of the XX century and their socio-economic consequences, as well as their impact on the ecological and epidemiological situation, are covered based on the sources.

Keywords: Earthquake, seismic event, urban development, architectural monuments and structures, damage, local observatory, ecological and epidemiological environment.

Турсунов Равшан Нормуратович
Доцент исторического факультета
Национального университета Узбекистана
доктор исторических наук (DSc)

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЙ, ПРОИЗОШЕДШИХ В ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ ХХ ВЕКА

Аннотация. В статье на основе источников освещены землетрясения, произошедшие в Туркестане во второй половине XIX - начале XX века и их социально-экономические последствия, а также влияние на экологическую и эпидемиологическую ситуацию..

Ключевые слова: землетрясение, сейсмическое событие, градостроительство, памятники и сооружения архитектуры, ущерб, местная обсерватория, экологово-эпидемиологическая среда.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N09.1>

Tabiiy ofatlar o'zining vayronkorligi bilan nafaqat tabiatga balki, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida ham ko'plab tabiiy ofatlar, jumladan, zilzilalar sodir bo'lib,

aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini og'irlashtirgan. Shuningdek, tabiiy muhitni o'zgarishiga, epidemiologik kasalliklarni ko'payishiga sabab bo'lgan.

Azaldan Turkiston o'lkasida shaharsozlikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, mamlakat hududida mahobatli me'moriy obidalar va inshootlar ko'plab barpo etilgan. Biroq tabiiy ofatlar va insoniyat ta'siri natijasida ular bizgacha mukammal asl holicha yetib kelmagan. Jumladan, kuchli zilzilalar oqibatida ularga jiddiy zarar yetgan. 1823 yil, 1897 yil, 1902 yil 3 dekabrda Andijonda, 1897 yil 5 sentabrda Samarqandda sodir bo'lgan kuchli zilzilalar insonlar hayotini izdan chiqarishi bilan bir qatorda bino va inshootlarni vayron etgan.

1878 yilda tashkil etilgan Toshkent astronomiya va fizika observatoriysi ham o'lkada sodir bo'lган zilzilalar, seysmik hodisalarini tadqiq etib, 1900-1916 yillar mobaynida Turkistonning Andijon, Farg'ona, Toshkent va boshqa hududlarda kuzatilgan yer silkinishlari haqida qimmatli ma'lumotlar bergen[1; 13-6.].

1. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Toshkentda zilzilalar tez-tez sodir bo'lib turgan. Jumladan, Toshkentda 1866 yil iyul oyining oxirida, 1868 yil 23 mart, 1878 yil 18, 21 fevral, 1883 yilning 19 mart va 15 oktabrida, 1886 yil 17 noyabr, 1888 yil 29 oktabr, 1902 yil 16 aprel, 22, 31 avgust, 1906 yil 26 yanvar, 23 sentabr, 22 noyabr, 1910 yil 5 noyabr, 22 dekabr, 1911 yil 21 iyunda zilzilalar kuzatilgan. 1868 yili 23 mart kuni tungi soat 2-15 da bo'lib o'tgan zilzila oqibatida mahalliy aholi yashaydigan joylardagi vayronalar ostida 15 nafar odam vafot etgan. Garchi mustahkam qurilgan bo'lsa-da, general-gubernator uyi ham tabiiy ofatdan ancha talofot ko'rgan edi. 1878 yili 18 fevral kuni soat kunduzgi 11, 12 da, 21 fevral kuni soat ertalabki 8-20 da yer silkinishi kuzatilib, u bir necha soniya davom etgan. Toshkentda 1883 yili uch marotaba zilzila bo'lган bo'lsa, eng kuchli tebranish shu yilning 15 oktabr kuni sodir bo'lib, yer ostida kuchli gumburlashlar uzoq vaqt eshitilib turgan. 1886 yil 17 noyabrda ertalab soat 9 va 10 lar orasida bo'lib o'tgan zilzilaning kuchi yuqori bo'lib, Toshkent shahrining mahalliy aholi yashaydigan qismida 7 ta uy, 2 ta ayvon, 5 ta otxona, 40 ta devor vayron bo'lган va 3 ta masjid buzilib ketgan. Shaharning ruslar yashaydigan qismida ham binolar zararlangan. Shuningdek, tabiiy ofat natijasida bir qizaloq nobud bo'lган[2; 482-483-6.].

1888 yil 16 noyabr kuni Turkiston general-gubernatorligining bir nechta hududida uncha kuchli bo'lмаган zilzilalar sodir bo'ladi. Zilzila oqibatida Toshkentdagи binolarga va shahar aholisiga umuman zarar yetmagan. Samarqandda yer osti tebranishlari juda sust, ya'ni deyarli his qilinmagan. Faqatgina Xo'jand uezdi hududida ro'y bergan yer silkinishida ayrim davlat idoralari binosi talofat ko'rgan. Ayniqsa, Kastakoza pochta stansiyasi va uezd boshqarmasi, shuningdek, mahalliy aholining bir necha uylari ko'proq zararlangan. 15 kishi nobud bo'lган, 13 kishi jarohatlangan[3].

1897 yilning 25 sentabridan 26 sentabriga o'tar kechasi sodir bo'lган zilzila natijasida Mingtepa volostining Tojik qishloq jamiyatiga qarashli Tojik qishlog'idagi Eshon Muhammad Ali Xalfa Hoji Usta Masobirov (Dukchi Eshon) masjidining yangidan qurilayotgan minorasi maktabxona ustiga qulagan va buning oqibatida uch kishi halok bo'lган[4].

1897 yil 5 sentabrda kechki soat 8⁰⁰da O'shda avvaliga tuproq chayqalishidan boshlanib, keyin tebranishga o'tgan va kamida 20 soniya davom etgan anchagina kuchli zilzila kuzatilgan. Yer ostidan shovqin eshitilmagan. Kechki soat 10⁰⁰dan 15 daqiqa o'tganda tebranish yanada ko'proq kuch bilan takrorlangan, binolarga shikast yetmagan[5].

Ma'lumotlarga ko'ra, 1901 yilga qadar Turkiston o'lkasida zilzilalarni qayd etish mahalliy observatoriya tomonidan yuritilmagan. Aynan shu yildan boshlab, seysmik asboblar

o'rnatilgandan so'ng, zilzilalarni qayd etish ilmiy ko'rinishga ega bo'lgan. Toshkent observatoriysi mutaxassislari tomonidan 1901 yildan 1907 yilgacha qilingan hisobotlar bo'yicha, Toshkentda bevosita sezilgan zilzilalar yangicha uslubda aniqlangan.

1902 yil 3 dekabr kuni ertalab soat 10 da sodir bo'lgan zilzila Andijon shahrini butkul yer bilan yakson qilgan. Zilzila oqibatida moddiy zarar taxminan 11.933.806 rublgacha deb hisoblangan. Bu ofat 4652 nafar aholining, asosan mahalliy aholining hayotiga zomin bo'lgan. Yer qimirlashidan oldin Andijonning ruslar yashaydigan qismida 123 ta xususiy uy va mahalliy aholi istiqomat qiluvchi qismida 10000 tagacha uy-joy mavjud bo'lib, ularda 50000 nafargacha aholi istiqomat qilgan[6; 175-6.].

Andijon shahri va uning atroflarida sodir bo'lgan zilzila oqibatlarini bartaraf etish, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish borasida qator chora-tadbirlar amalgalashirilgan. 1902 yil 6 dekabrda Marg'ilon shahar boshlig'ining Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yo'llagan bayonotida Marg'ilon shahar g'aznasidan 25 ming rubl pul mablag'lari olinib, undan 20 ming rubl mablag'ni Andijon va Marg'ilon uezdi tub aholisiga yordam sifatida ishlatish hamda 5 ming rubl mablag'ni Andijonning rus qismida yashovchilarga ishlatishga ruxsat bergenligi qayd etilgan. Mazkur yordam asosan oziq-ovqat mahsulotlarini muhtoj aholiga yetkazish, imkonи tug'ilsa, ularga kiyim-kechak va isitish bo'yicha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan[7].

Zilzila oqibatida aholi qishgi mavsumda boshpanasiz, oziq-ovqatsiz, kiyim-kechaklarsiz qoladi. Bunday og'ir falokat tufayli aholiga yordam berish uchun Andijonning rus aholisi yashaydigan qismida rohib Aristotelev, katta shifokor Fegler, soliq inspektori Vetberg, yer o'lchovchi Starikov, veterinar Kurovskiy, shahar deputatlari Penskiy va Korovayevlar, Penskaya va Starikova xonimlari ishtirokida qo'mitalar tashkil etilgan. Mahalliy qismda va volostlarda tub aholi xohishiga ko'ra, obro'-e'tiborli mahalliy aholi vakillaridan qo'mitalar tuziladi. Qo'mitalar ichidan bir guruh yetakchi rahbarlar bo'lgan[8].

1902 yil 3 dekabr zilzilasining Andijon shahri binolariga ta'sirini o'rganish uchun ma'muriyat shaharning ruslar yashaydigan qismi binolari, temir yo'l stansiyalari, qal'a va mozorlari hamda "Juma", "Abdurahmon Oftobachi", "Musulmonqul" masjid va madrasalarini va ushbu hududga olib keluvchi yo'l o'tgan tumanni ko'zdan kechirgan. Guvohlarning deyarli barchasi zilzila keskin silkinish va zarbalar shaklida sodir bo'lganligini ta'kidlashgan. Qolaversa, binolarning zararlanganlik darajasi va qulashi buni tasdiqlagan. Zilzila oqibatlarini o'rgangan mutaxassislar "3 dekabrda sodir bo'lgan zilzilaning bergen achchiq sabog'idan xulosa chiqarib, kelajakda Andijon hududlarida xom g'ishtli devordan uy qurishdan butunlay voz kechishga to'g'ri keladi"[9] deb xulosa chiqarishgan. Mustamlakachilik siyosatining achinarli ko'rinishlaridan biri bu mahalliy aholiga nisbatan past nazar bilan qarash bo'lib, bu holatni Andijondagi zilzila natijasida yaqqol ko'rish mumkin. Xususan, zilzila sodir bo'lgan Farg'ona viloyatida asosan rus aholisiga katta yordam berilganligi, Qizil Xoch tashkiloti tomonidan 30 ta yuk tashish vagonlariga barcha qulayliklarni yaratib, Andijon uezdidiagi rus aholisiga topshirilganligi[10] Rossiya imperiyasi va Turkiston general-gubernatorligining vaziyatga adolatsizlarcha yondashganligini isbotidir. Qolaversa, tabiiy ofatning qish faslida bo'lganligini inobatga oladigan bo'lsak, uy-joylari vayronaga aylangan mahalliy aholi vakillari sovuqdan qattiq aziyat chekishgan.

1903 yil 13 fevralda Turkiston general-gubernatori, general-leytenant N.A. Ivanov imzosi bilan Peterburgga Harbiy vazir nomiga jo'natilgan xatda Andijondagi yer qimirlashi

natijasida talofat ko'rgan aholiga boshqa hududlardan moliyaviy va insonparvarlik yordami ko'rsatilganligi qayd etilgan. Jumladan, 1902 yil 3 dekabr kuni Andijonda sodir bo'lgan zilzila oqibatida zarar ko'rgan hududlardagi vayronalarni tiklash, insonlarga yordam ko'rsatish maqsadida Xiva xoni andijonliklar foydasiga 2 ming rubl, Asfandiyor To'ra esa 500 rubl xayriya qilgan. Bundan tashqari, xonlik aholisi tabiiy ofatdan zarar ko'rganlarga uch ming rubl miqdoridagi mablag'ni to'plab bergen. Buxoro amirligi tomonidan ham uch ming rubl miqdorida xayriya yordami ko'rsatilgan. Xiva va Buxoro hukumatiga xayriya ishlarini amalgalashirganliklari uchun general-gubernatorlik tomonidan minnatdorchilik bildirilgan[11; 214-6].

E'tirof etish lozimki, o'zbek xalqi azaldan olijanob fazilat va qadriyatlarga ega bo'lib, buni Andijondagi zilzila misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, Farg'ona viloyatiga xususan, tabiiy ofatdan jiddiy zarar ko'rgan hududlar uchun Xiva va Buxoro hukumati hamda aholisi tomonidan moliyaviy va insonparvarlik yordamlarining ko'rsatilishi xalqimizning yuksak ma'naviy fazilatining yaqqol ko'rinishidir.

Arxiv hujjatlariga ko'ra, 1907 yil 8 oktabrda Turkiston general-governatoriga Samarqand viloyati harbiy gubernatori tomonidan Samarqandda 8 oktabrda sodir bo'lgan Rossi-Forel shkalasi bo'yicha mahalliy kuzatuvlarda aniqlangan zilzila kuchining ko'rsatkichlari va tabiiy ofatdan keyingi holat to'g'risida hisobot berilgan[12].

Samarqandda yer qimirlashi ertalab sodir bo'lganligi uchun ham sarosima holati kuzatilmagan. Shunga qaramay, hamma odamlar ko'chaga yugurib chiqqan. Harbiy gubernator yordamchisining xabariga ko'ra, "zilzila vaqtida viloyat qamoqxonasida mahbuslar juda qo'rqb qolgan. Chunki qamoqxona nazoratchilari va navbatchilar hammasi tashqariga yugurib chiqib ketishgan. Ushbu vaziyatda kichik nazoratchi Ivan Parshakov mardlik ko'rsatib, mahbuslarni tashqariga olib chiqqan"[13].

Samarqand shahrining ruslar yashaydigan hududida zilzila oqibatida hech kim zarar ko'rmagan, ammo shaharning mahalliy aholi yashaydigan qismida qurbanlar kuzatilgan. Jumladan, zilzila vaqtida Xabasi mavzesida mahalliy aholi vakili U.Sadiqboyeva o'zining eski kulbasida bo'lib, birinchi silkinishdan so'ng u tashqariga yugurib chiqayotganida ustiga omborxonaning devori qulashi oqibatida halok bo'lgan. Marhumaning tanasi butunlay mayib holda chiqarib olingan. Shuningdek, yer silkinishi vaqtida buxorolik yahudiylar mavzesida yashovchi Xanna Xafizova mavzedagi ko'cha bo'ylab ketayotganida uchib kelgan g'isht uning bosh chanog'i yorilishiga olib kelib, bu uning bir lahzada hayotdan ko'z yumishiga olib kelgan. Shaharda boshqa qurbanlar bo'lмаган[14; 235-6].

Samarqandda sodir bo'lgan tabiiy ofatning birinchi 2 ta kuchli silkinishlaridan keyingi silkinishlar aholini sarosimaga solib qo'yan. Hattoki, keyinchalik bundan ham kuchli dahshatli yer qimirlashi kelishi mish-mishlari tarqalib ketgan. Mahalliy ma'muriyat aholini tinchlantirib, ularni fikri xato ekanligini tushintirishgan, aholi biroz bo'lsa-da, sarosimadan qaytgan.

Birinchi silkinishdan so'ng amalgalashirgan tekshiruvlardan so'ng, uezd boshqarmasi binosi, Qizlar gimnaziyası binosi, G'aznachilik binosi, Amir Temur maqbarasining masjidi, Ruhobod masjidi, Ulug'bek minorasi kabi davlat va xususiy binolar jiddiy zarar ko'rganligi aniqlangan[15]. Shuningdek, mahalliy va rus mavzelarida ko'plab uylarga darz ketgan, ularda suvoqlar ko'chgan. Ko'pchilik eski ombor, kulba, paxsa uylar buzilib ketgan. Sher dor masjidining taxminan 3 kv. sajen yuzasiga ega gumbazi, Bibixonim gumbazi esa qisman qulab

tushgan. Barcha buyumlar va materiallar mutavvaliga topshirilgan. Qulab tushgan materiallarni o'g'irlanishdan asrash uchun qo'riqlash yo'lga qo'yilgan[16].

1910 yili 5 noyabrda Toshkentda soat kechki 8 dan 7 daqiqa o'tganda qattiq gumburlash bilan birga kuchli yer qimirlashi kuzatilgan. 1910 yilning 22 dekabrida ertalabki soat 4⁰⁰dan 4 daqiqa o'tganda qattiq yer silkinishlari sodir bo'lib, u uxbab yotgan fuqarolarning nafaqat uyg'onishlariga, balki, qo'rquv bilan sakrab o'rinalidan turishga majbur qilgan. Ularning ko'plari qo'rquvdan yugurib ko'chaga, hovliga ichki kiyimda yoki ustilariga yopinchiqlar yopib olgan holda chiqishgan edi. Osilib turgan lampalar tebranib, uzun mayatnigi bor soatlar to'xtab qolgan, idish-tovoqlar jaranglagan edi. Vokzal oldidagi ba'zi binolarda bilinar-bilinmas yoriqlar paydo bo'lgan. Bu zilzilaning kuchi Rossi va Forel shkalasi bo'yicha 5 ball deb baholangan. Toshkent shahrida 1911 yil 21 iyunda kechki soat 6⁰⁰dan 11 daqiqa o'tganda sodir bo'lgan zilzilaning ham kuchi 5 ballni tashkil etgan[17; 483-6].

Milliy taraqqiyat parvar tomonidan ham gazetalarda, xususan, "Sadoi Farg'ona" gazetasi sahifalarida mintaqada sodir bo'lgan zilzilalar haqida ma'lumotlar berib borilgan. Jumladan, 1914 yilning 26 may dushmanba kunida Toshkentda zilzila bo'ladi. "Yerning harakatidan og'ir narsalar ham yerga tushdi, yiqildi. Zilzila bo'lur oldidan yer ostidan qaldiramoq dovushlari ham eshituldi"[18] deb yozilgan. Gazetada 1914 yilning 3 iyun kuni kechasi Olma-Otada[19], 1914 yilning 2 iyul kuni kunduzi Ho'qandda ham zilzila[20] sodir bo'lganligi bayon etilgan.

Umuman olganda, Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan zilzilalar aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan. Ko'plab bino va inshootlar zarar ko'rgan. Insonlar, chorva va boshqa turdag'i jonzotlar nobud bo'lgan. Tabiiy ofat natijasida zilzila sodir bo'lgan hududlardagi ekologik va epidemiologik muhit izdan chiqqan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон худудида табиий фанлар йўналишидаги илмий тадқиқот ва экспедициялар (XIX аср – XX аср бошлари) [Матн] / Лойиҳа раҳбари Д.Ҳ.Зияева. – Тошкент: "Akademnashr", 2019. – Б.13.
2. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Ташкент, 1912. – С.482-483.
3. O'zMA, I-1-fond, 4-ro'yxat, 56-yig'ma jild, 7-varaq.
4. O'zMA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 5297-yig'ma jild, 8-varaq.
5. O'zMA, I-19-fond, 4-ro'yxat, 284- yig'ma jild, 28-varaqning orqasi.
6. Ежегодник Ферганской области. Том II. – Новый Маргелан. 1903. – С.175.
7. O'zMA, I-1-fond, 28-ro'yxat, 553-yig'ma jild, 70-varaq.
8. O'zMA, I-1-fond, 28-ro'yxat, 554-yig'ma jild, 110-varaq.
9. O'zMA, I-1-fond, 28-ro'yxat, 554-yig'ma jild, 132-varaq.
10. O'zMA, I-1-fond, 28-ro'yxat, 556-yig'ma jild, 303-varaq.
11. Tursunov R.N. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ekologik vaziyat va atrof-muhit muhofazasi masalalari [Matn]: Monografiya / R.N.Tursunov. – Toshkent: "Firdavs-Shoh nashriyoti". 2023. – Б. 214.
12. O'zMA, I-1-fond, 4-ro'yxat, 1171-yig'ma jild, 38-varaq.
13. O'zMA, I-1-fond, 4-ro'yxat, 1171-yig'ma jild, 38-varaq.
14. Турсунов Р.Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистон ўлкасида экологик вазият ва атроф-мухит муҳофазаси масалалари [Матн]: Монография / Р.Н.Турсунов – Ташкент: "Firdavs-Shoh nashriyoti". 2023. – Б.235.
15. O'zMA, I-1-fond, 4-ro'yxat, 1171-yig'ma jild, 38-varaqning orqasi.
16. O'zMA, I-1-fond, 4-ro'yxat, 1171-yig'ma jild, 39-varaqning orqasi.

17. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Тошкент, 1912. – С.483.
18. Зилзила. Туркистон хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 1 июнь.
19. Зилзила. Ҳўқанд хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 6 июль.
20. Зилзила. Туркистон хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 42-сон.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).